

---

## Qishloq xo'jaligi masalalariga bag'ishlangan seminar o'tkazildi

Toshloq tumani 1-sektor hududidagi "Xurshidbek ziyo" fermer xo'jaligida g'o'za maydonlariga birinchi kompleks ishlov berish masalalariga bag'ishlangan seminar bo'lib o'tdi.

Unda tuman hokimi A. Djurabayev, sektor rahbarlari, mehnat faxriylari, sohaga oid korxonalar va tashkilotlar hamda fermer xo'jaliklari rahbarlari qatnashdi.

Seminarda fermer xo'jaliklariga g'o'za qator oralariga birinchi kompleks ishlov berish, o'q ariq olish, chuqur yumshatish, mayda chopiq, yaganalash, suspenziya sepish, oltingugurt changitish, oziqlantirish kabi muhim agrotexnik tadbirlarni bajarilishi buyicha tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

2023-04-15 14:27:55